

ZAMONAVIY XALQARO HUQUQDA - O'Z MUSTAQILLIGI UCHUN KURASHAYOTGAN MILLAT VA XALQLARNING HUQUQIY SUBYEKTLILIGI MASALASI

Ergashov Behruz Xurshid o'g'li

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" yo'nalishi
magistratura talabasi.

Elektron pochta manzili: bekerg098@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14061648>

Annotatsiya. So'nggi yillarda dunyo siyosiy maydonida ro'y berayotgan tahlikali holatlar zamirida - xalqaro ommaviy huquq nechog'lik muhim ekani yana bir bora o'z isbotini topdi desak yanglishmagan bo'lamiz. Bevosita xalqaro ommaviy huquqning subyektlari orasida vujudga kelayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy nizolar sababli sohaga oid huquq normalarini yanada isloh qilish, javobgarlikni kuchaytirish va eng asosiy jihatlaridan biri subyetklar orasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, kuch bilan tahdid qilmaslik, xalqlarning o'zini o'zi anglash va teng huquqliligi kabi prinsip qoidalariga qat'iy rioya qilish talab qilinadi.

O'z mustaqilligi uchun kurashayotgan millat va xalqlarning huquqiy maqomi garchi xalqaro normalar bilan tartibga solinib, muhofaza qilinsa ham biroq hanuzgacha ushbu subyektga nisbatan munosabat barqaror emas. Bir necha yuz yillardan beri qabul qilinayotgan deklaratsiya, nizom, xalqaro paktlar orqali ushbu subyetlarning huquqiy maqomini mustahkamlashga oid ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur maqola xalqaro huquqning asosiy (birlamchi) subyektini hisoblangan o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan millat va xalqlarning huquqiy subyektliligi va ularning o'ziga xos jihatlari hamda uning rivojlanish bosqichlari, huquqiy asoslari va amaliy muammolari haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Millat va xalq tushunchasi, xalqaro ommaviy huquq, xalqaro huquq normalari, asosiy (birlamchi) va hosila (ikkilamchi) subyekt, o'z taqdirini o'zi belgilash.

IN MODERN INTERNATIONAL LAW - THE ISSUE OF LEGAL SUBJECTIVITY OF NATIONS AND PEOPLES FIGHTING FOR THEIR INDEPENDENCE

Abstract. It would not be wrong to say that the importance of international public law has been proven once again amid the dangerous situations that have taken place in the world's political arena in recent years. Due to the political, economic, social, cultural, religious conflicts that arise between the subjects of international public law, further reform of the legal norms related to the field, strengthening of responsibility, and one of the most important aspects is the peaceful resolution of disputes between the subjects, without threats of force, strict adherence to principles such as self-realization and equal rights of peoples is required. Although the legal status

of nations and peoples fighting for their independence is regulated and protected by international norms, the attitude towards this subject is still unstable. Efforts are being made to strengthen the legal status of these subjects through declarations, regulations, and international pacts that have been accepted for several hundred years. This article provides information about the legal subjectivity of nations and peoples fighting for their independence, which are considered the main (primary) subject of international law and their specific aspects, as well as the stages of its development, legal foundations and practical problems.

Key words: concept of nation and people, public international law, norms of international law, main (primary) and derivative (secondary) subject, self-determination.

В СОВРЕМЕННОМ МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ - ВОПРОС ПРАВОВОЙ СУБЪЕКТНОСТИ НАЦИЙ И НАРОДОВ, БОРЮЩИХСЯ ЗА СВОЮ НЕЗАВИСИМОСТЬ.

Аннотация. В последние годы не будет ошибкой сказать, что важность международного публичного права в очередной раз подтвердилась в условиях опасных ситуаций, произошедших на мировой политической арене. В связи с политическими, экономическими, социальными, культурными, религиозными конфликтами, возникающими между субъектами международного публичного права, дальнейшее реформирование правовых норм, касающихся этой области, усиление ответственности, одним из важнейших аспектов которого является мирное разрешение конфликтов. В спорах между субъектами без угроз применения силы требуется строгое соблюдение таких принципов, как самореализация и равноправие народов. Хотя правовой статус наций и народов, борющихся за свою независимость, регулируется и защищается международными нормами, отношение к этому вопросу по-прежнему нестабильно. Предпринимаются усилия по укреплению правового статуса этих субъектов посредством деклараций, постановлений и международных пактов, которые принимаются уже несколько сотен лет. В данной статье представлены сведения о правовой субъектности борющихся за свою независимость наций и народов, считающихся основным (основным) субъектом международного права, и их специфических аспектах, а также об этапах ее развития, правовых основах и практических проблемах.

Ключевые слова: понятие нации и народа, международное публичное право, нормы международного права, главный (первичный) и производный (вторичный) субъект, самоопределение.

Avvalo mavzuga chuqurroq kirishdan oldin, bevosita xalqaro ommaviy huquq qanday huquq tarmog'i ekanligini, qanaqa munosabatlarni tartibga solishini va boshqa jihatlarini ko'rib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Xalqaro huquqqa berilgan tariflar juda ko'p keling ulardan bir nechtasini ko'rib o'tamiz.

Xalqaro huquq - tinchlik va hamkorlikni ta'minlash maqsadida xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik prinsiplar va normalar tizimidir.¹

Xalqaro huquq - davlatlar, xalqlar, xalqaro tashkilotlar, turli jamoat birlashmalari, alohida fuqarolar (xalqaro huquq tilida ular individlar yoki jismoniy shaxslar deb ataladi), turli davlatlarning yuridik shaxslari ishtirok etadigan xalqaro munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquq tizimi.²

Xalqaro huquq subyekti o'z imkoniyatlari va yuridik xususiyatlari tufayli xalqaro huquq bo'yicha muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishga va uning normalarini yaratish va amalda tatbiq etishda qatnashishga qodir mustaqil tuzilmadir³

Yuqoridagi tariflardan ko'rinib turibdiki, xalqaro huquqning asosiy birdan bir maqsadi tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlar orasidagi hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashdan iboratdir. Bunga erishish uchun esa avvalo xalqaro miqyosida qabul qilinadigan va majburiy xarakterga ega bo'lgan normlarni isloh qilinishi va sanksiyalar qat'iy xarakterli bo'lishi lozim. Zamonaviy xalqaro ommaviy huquqning rivojlanish bosqichi bu bevosita 2-jahon urushidan keyinga borib taqaladi. 1946-yil 11-dekabrdagi BMT Bosh Assambleyasining „Xalqaro huquqni rivojlantirish va uning kodifikatsiyasi to'g'risidagi“ rezolyutsiya va BMT Xalqaro Sud Statusining 38-moddasi bilan ushbu huquq sohasi yanada mustahkamlandi. Endi esa bevosita huquq sohasining subyektlariga to'xtalib o'tsak, shundagina barcha subyetlarning huquqiy maqomini, holatini bir biridan ajratib olishimiz osonroq kechadi.

Xalqaro huquqning subyekti deganda ushbu huquq sohasidan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga ega bo'luvchi, o'sha huquq majburiyatlarni himoya qila oladigan, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlarga kirishuvchi hisoblanadi. Shundan kelib chiqadiki, xalqaro huquqning barcha subyetlari tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, ushbu xususiyati huquq subyektiligi deb ataladi.

Endilikda bevosita xalqaro huquqning subyektlariga to'xtaladigan bo'lsak, ular quyidagilar:

¹Xalqaro ommaviy huquq (Darslik A.X.Saidov va boshqalar TDYU nashriyoti, 2023)

² Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari 1.1. Lukashuk, A.X. Saidov; -T.: O'zbekiston faylasuflarimilliy jamiyati nashriyoti, 2007.

³ Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari: Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ 1.1. Lukashuk, A.X. Saidov; -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007

-Asosiy (birlamchi) subyekt bo'lib, uning o'zi 2 turga bo'linadi:

a) davlat

b) o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan millat va xalqlar

-Hosila (ikkilamchi) subyekt bo'lib, uning o'zi ham bir necha turlarga bo'linadi:

a) xalqaro davlatlararo tashkilotlar

b) davlatga monand tuzilmalar, (misol uchun Vatikan) va boshqalar

Xalqaro huquq subyetlari ichida millatlar va xalqlar alohida ahamiyat kasb etadi.

E'tiborlisi shundaki barcha millat va xalqlar ham xalqaro huquq subyektiligiga ega bo'la olmaydilar. Xalqaro vaziyatdan kelib chiqib, faqatgina o'z davlatini tuzish maqsadida ozodlik hamda suveren bo'lish uchun kurashayotgan mustamlaka qaramligida bo'lgan millat va xalqlar ularni xalqaro huquq subyektivlik deb tan olishlari uchun da'vogarlik qilishlari mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, barcha millat va xalqlar ham xalqaro huquq subyekti bo'la olmaydi, faqatgina o'zlarining ozodlik harakatlarini olib borishlari, mustamlaka mamlakatga qarshi turishlari lozimdir. Tarixdan ma'lumki, zulmdan ezilgan millat va xalqlar turli nomlar ostida guruh, jamoa, ittifoq tuzib zulmning ildiziga bolta urushgan. Aynan shu kabi millat va xalqlar o'zlarining huquqlarini himoya qiladigan, asosan harbiylardan tarkib topgan hukumatiga ham ega bo'lishgan. 1966-yilgi Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlarning dastlabki moddalarida: «barcha xalqlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega» ekani mustahkamlab qo'yilishi bilan o'z taqdirini o'zi belgilash hamda inson huquqlari o'rtasidagi bog'liqlik tasdig'ini topdi. Etnik, diniy va til jihatidan ozchilikni tashkil etuvchilarga kelsak, ularga mansub shaxslarga xuddi shu guruhlarining boshqa a'zolari bilan birgalikda o'z madaniyatidan bahramand bo'lish, o'z diniga e'tiqod qilish va shu din marosimlarini ado etish, shuningdek, ona tilidan foydalanishni taqiqlash mumkin emas. Millatlar va xalqlarning huquqiy subyektligi va o'z taqdirini belgilash huquqi xalqaro huquqda alohida ahamiyatga ega. Bu huquq, 1960-yillarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan tasdiqlangan va keyinchalik bir qator xalqaro huquq me'yorlariga kiritilgan. BMTning 1514-sonli Qarori (Dekolonizatsiya deklaratsiyasi) bu huquqni barcha xalqlarga berish, ularni siyosiy mustaqillikka erishishga yordam berish zarurligini ta'kidlagan. Xalqaro huquqning bu prinsipial qarori xalqlarni kolonialistik bosqinchilikdan ozod qilishga intilgan va mustaqillik, o'zgarishlar va o'z-o'zini belgilash huquqini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlagan.⁴

Mustaqillikka erishishga intilayotgan millat va xalqlar xalqaro huquqda subyekt sifatida e'tirof etilishi uchun bir qancha shartlar mavjud. Bu shartlar quyidagilardan iborat:

⁴ BMTning 1960-yil "Mustamlakachilikka qarshi deklaratsiya"

a) Xududiy yaxlitlik: Xalq yoki millat o'z yurisdiksiyasida erkin va mustaqil yashashi kerak. Bu o'z-o'zini boshqarish, davlat tuzish va o'z qonunlarini yaratish va amaliy hayotga tatbiq etishni o'z ichiga oladi.

b) Siyosiy va iqtisodiy suverenitet: Millat yoki xalqning o'z hukumati va boshqaruv tizimiga ega bo'lishi, shuningdek, o'z iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy resurslarini erkin boshqarish huquqiga ega bo'lishi kerak.

c) Xalqaro tan olish: Bir millat yoki xalqning subyektlik huquqi, ko'pincha xalqaro jamoat yoxud shunday xalqaro miqyosidagi tashkilot tomonidan tan olinadi. Bu tan olish orqali yangi tashkil etilgan davlat xalqaro munosabatlarda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.⁵

Xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga egaligi prinsipi xalqlarning huquqi, ammo ularning majburiyati emas. Ushbu huquq turli xil variantlarda ro'yobga chiqarilishi mumkin. O'z taqdirini o'zi belgilash ayirmachilik negizida, suveren davlatlar hududiy yaxlitligi va siyosiy hamjihatligiga ziyor yetkazadigan tarzda amalga oshirilmasligi kerak.

Modomiki, xalq o'zini rasmiy jihatdan namoyon etadigan va ommaviy-huquqiy vazifalarni bajaradigan organni yoxud shunday boshqaruv tashkilotini yaratgan bo'lsa, u holda o'z taqdirini o'zi belgilash jarayoniga tashqaridan xalal beruvchi har qanday tajovuzkorona xatti-harakat davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va suveren tengligi prinsiplariga xilof harakatlar sifatida baholanishi mumkin. Yuqorida keltirilgan jumladan ko'rinib turibdiki, millat va xalqning subyekt sifatida kurash olib borishi uchun avvalo uning o'z manfaatlarini himoya qiladigan, normalar ishlab chiqadigan, hukumati bo'lishi lozimligi yana bir bora takidlangan. BMTning ba'zi rezolyutsiyalari va xalqaro tashkilotlarning qarorlari bunday xalqlarning mustaqillik uchun kurashini qonuniy deb tan olishga yordam beradi. Bu bilan xalqaro hamjamiyat ularning huquqiy subyektligini tan olishi mumkin.

Ushbu mavzuning yana bir asosiy jihatiga to'xtalib o'tsak, bu ham juda muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblayman. Ya'ni „millat“ va „xalq“ tushunchalarining bir biridan farqli va o'xshash jihatlarni ko'rib chiqsak mavzumizga chuqurroq kirgan bo'lamiz. Millat va xalq tushunchalariga oid turli ta'riflar mavjud bo'lib, "Millat" asosan til, madaniyat, tarix, e'tiqod va boshqa o'xshash jihatlar orqali bir-biriga yaqin bo'lgan odamlar guruhini anglatadi. "Xalq" esa kengroq ma'noda tushuniladi, bir hududda yashovchi, biror siyosiy tuzum va bir siyosiy mafkura ostidagi shaxslar jamlanmasiga ishora qiladi. Shunday qilib, millat va xalqning huquqiy subyektligi masalasi ham ancha murakkab va turli qarashlarga ega o'zgacha tushunchadir.

⁵ Hammualliflik maqolasi 2022 yil 36-bet

Millat va xalqlar o'z mustaqilligini e'lon qilishi va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'lishi mumkin. Bunday jarayonlar bevosita XIX asr boshlaridan –XX asr oxirigacha bo'lgan davrda keng quloch yozdi. Yuqorida ko'rsatilgan muddatlar oralig'ida koloniyalarda mustamlakachilikka qarshi norozolik harakatlari nihoyatda urchidi. Dunyo siyosiy hayotida katta kuchga ega bo'lgan qudratli davlatlar, jumladan Buyuk Britaniya, Fransiya, Usmonli Turklar imperiyasi ba boshqa hukmron elitalar o'z mavqeyini yo'qotishni boshladi. Natijada esa ko'plab alohida –alohida siyosiy partiyalar, ittifoqlar, ozodlik harakatlari jonlana boshladi va oxir oqibatda ular o'zlarining hukumatiga ega bo'lgan subyektlarni vujudga keltirishdi. Keyingi o'rindagi asosiy masala bu o'sha subyektlarning xalqaro maqomi edi. Ularning xalqaro huquqda subyekt sifatida tan olinishi nafaqat o'sha millat va xalqlar uchun balki boshqa subyektlar juchun ham ahamiyatlidir. Bunga sabab o'sha hududdagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa bir qancha omillardir.

O'z mustaqilligini talaba qilayotgan millatlar va xalqlar ko'pincha bir qancha muammolarga duch keladilar:

Davlatlarning qarshiligi: Mustaqillikni e'lon qilgan millatlar va xalqlar ba'zan mavjud davlatlar tomonidan yoxud mustamlakachi davlat tomonidan tan olinmaydi, bu esa xalqaro munosabatlar va diplomatik kurashlarni yuzaga keltiradi.

Xalqaro qonunlar va tan olinishi: Zamonaviy xalqaro huquqda mustaqillikni olish huquqi asosan xalqaro tan olinishga asoslangan. Biroq, mustamlakachi davlatlar millat va xalqlarning suverenitetini tan olmaslikka va qonun normalariga zid harakatlar degan vajlar bilan ularning mustaqilligini inkor qiladi.

Milliy birlik, etnik nizolar va davlatning barqarorligi: Ba'zi holatlarda, yangi davlatni tashkil etish o'zida ichki qarama-qarshiliklarni yoki etnik, diniy yoki siyosiy bo'linishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun, o'z taqdirini belgilash va mustaqillikka erishish faqat tashqi huquqiy qarorlar bilan emas, balki ichki siyosiy va ijtimoiy omillar bilan ham bog'liq. Bunga yorqin misol sifatida Falastindagi holatlarni keltirishimiz mumkin.

Bugungi kunda millat va xalqlarning huquqiy subyektligi masalasi ko'plab zamonaviy geosiyosiy vaziyatga ta'sir qilmoqda va siyosiy muammolar bilan chambarchas bog'liq.

Mustaqillikni e'lon qilgan, biroq haligacha xalqaro jamoatchilik tomonidan tan olinmagan davlatlar va xalqaro maydonda "qonuniy asoslarda" subyektlilikni olish uchun kurashayotgan xalqlar hali ham muhokamali masalala bo'lib kelayotganligi hech kimga sir emas. Endi esa bevosita shu va shu kabi ba'zi bir mustaqillik uchun kurashayotgan millatlarva xalqlarga to'xtalib o'tamiz. Ispaniyaning shimoliy-sharqida joylashgan bir necha 10 yillardan beri ozodlik uchun harakat qilayotgan Kataloniya hududida ham ayanan mustaqillik uchun jadal harakatlar 2006-yildan faollashdi.

Hattoki, 2017-yilda referendum uchun faol harakatlar amalga oshirilgan bo'sada biroq, Ispan hukumati bu referendumni noqonuniy deb topdi. Hozirgi kunda Kataloniya mustaqilligi uchun kurash davom etmoqda, ammo Ispaniya hukumati va xalqaro hamjamiyat bu harakatni qo'llab-quvvatlamaydi. Birgina ushbu misol orqali ham, biz xalqaro huquq subyektiligi doir turli nazariyalar borligi anglab olishimiz mumkin. Shuningdek, hozirgi paytda global muammo bo'layotgan Falastin masalasi ham aynan bizning mavzumizga xos desak adashmagan bo'lamiz.

Falastin davlati BMT tomonidan kuzatuvchi davlat maqomida tan olingan bo'lsa-da, u hali to'laqonli xalqaro huquq subyekti sifatida tan olinmagan. Kataloniya yoki Kurdiston kabi millatlar esa o'z mustaqilligini talab qilayotgan bo'lsa ham, ular davlatlar o'rtasidagi manfaatlar, tarixiy hududiy da'volar sababli xalqaro tan olinishga erisha olmay kelmoqda.

Xalqaro tajribadan shuni kuzatish mumkinki, umumiy xalqaro huquq metropoliya davlatlardan mustamlaka qaramligidagi millat yoki xalqlarning xalqaro huquq subyektiligini olish imkoniyatini ham tan oladi. Agar shunday xalq yoki millat o'z ozodligi uchun kurashni boshlasa hamda hudud va xalqlarning anchagina qismi ustidan boshqaruv va nazoratni amalga oshirsa, bunday kurash mobaynida xalqaro huquq normalariga rioya qilsa, xalqaro miqyosda xalq nomidan qatnashuvchi ozodlik organini tuzsa, u holda uning xalqaro huquq subyektiligi tan olinadi.

Mohiyatan, mazkur shartlarga rioya etilishida o'z ozodligi uchun kurashayotgan xalqlar ma'lum bir davlatchilik belgilariga ega bo'ladilar. Hamda ushbu xalqlar yangi davlat barpo etish bosqichida xalqaro huquq subyektiligiga ham ega bo'ladilar.⁶

Ozodlikka intilayotgan millat va xalqlar inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro normalar bilan ham qo'llab-quvvatlanishi mumkin. BMTning inson huquqlari bo'yicha kengashi, xalqaro huquqiy tashkilotlar va inson huquqlari tashkilotlari ularning huquqlarini xalqaro miqyosida muhofaza qilishga harakat qiladi. Shu tarzda, ular xalqaro huquq subyektlari sifatida o'z maqomini oshirishi mumkin. Mustaqillik uchun kurashayotgan millat va xalqlar xalqaro huquqda davlat maqomiga ega bo'lmagan taqdirda ham, xalqaro hamjamiyat tomonidan muayyan sharoitlarda subyekt sifatida tan olinishi mumkin. Bu tan olish, asosan, xalqaro qo'llab-quvvatlash, inson huquqlarini himoya qilish va diplomatik munosabatlar orqali amalga oshiriladi. Mustaqillik uchun kurashayotgan bir qancha millatlar xalqaro tashkilotlarda kuzatuvchi maqomida bo'lishi juda foydali jarayon hisoblanadi. Chunki shu orqali boshqa subyektlar bilan aloqaga kirishadi va tan olinishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shimoliy Kipr masalasi ham hozirgi vaqtda juda aktiv holatda bo'lgan siyosiy jarayondir.

⁶ Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof. G.Yuldasheva// Mualliflar jamoasi TDYU-2018 y jamoasi. -T.: TDYU nashriyoti, 2018

Bundan tashqari Tibet va Tayvan kabi bir necha mustaqillik uchun kurashayotgan davlat va xalqlar ham o'z suvereniteti uchun juda jiddiy kurash olib bormoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan xalqlarning subyektliligi masalasi hozirgi zamon xalqaro huquqida eng dolzarb masala sifatida e'tirof qilinmoqda. Bunga o'ziga yarasha sabablar ham mavjud, subyektliligi masalasida esa fiklar turlicha. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari, jumladan, o'z taqdirini belgilash huquqi, davlat suvereniteti va ichki ishlar bilan aralashmaslik kabi normativ qoidalar, mustaqillik uchun kurashayotgan xalqlar va millatlar uchun ikki tomonlama ma'noga ega bo'ladi: ular bir tomondan o'z huquqlarini himoya qilish va mustaqil davlat qurish imkoniyatiga ega bo'lsa, boshqa tomondan, mavjud davlatlarning qarshiliklari yoki xalqaro huquqdagi muayyan cheklovlar ularning jarayonlarini murakkablashtiradi. Hozirgi siyosiy holatda xalqaro ommaviy huquqning blankasi har doimgidanda yuqoriroqdir. O'z mustaqilligini talab qilayotgan xalqlarning huquqiy subyektliligi masalasi xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qamrovli tan olinishi va himoyasi zarur bo'lgan masala sifatida yuzaga chiqadi. Bu jarayon bir nechta omillarga — siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy faktorlar — bog'liq. O'z taqdirini belgilash huquqi barcha xalqlarga tan olinishi kerak bo'lsa-da, mustaqillikka erishish ba'zan faqat tashqi tan olish va xalqaro diplomatik qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. O'z mustaqilligi uchun kurashayotgan millatlar va xalqlarning huquqiy subyektliligi masalasi xalqaro huquq tizimida doimiy ravishda yangilanib borayotgan va muhokama qilinayotgan muhim bir soha bo'lib qoladi. Bu sohada huquqiy me'yorlar, xalqaro tan olish mexanizmlari va yangi diplomatik tartiblar rivojlanishi davom etishi kerak. Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib, ushbu subyektlarning huquqiy maqomini turli xalqaro shartnoma, konvensiyalar bilan mustahkamlansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

REFERENCES

1. Xalqaro ommaviy huquq (Darslik A.X.Saidov va boshqalar TDYU nashriyoti, 2023)
2. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari 1.1. Lukashuk, A.X. Saidov; -T.: O'zbekiston faylasuflarimilliy jamiyati nashriyoti, 2007
3. BMTning 1960-yil "Mustamlakachilikka qarshi deklaratsiya"
4. Hammualliflik maqolasi 2022 yil 36-bet (SamDu)
5. Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof. G.Yuldasheva// Mualliflar jamoasi TDYU-2018 y
6. Tsul.library.uz